

## **Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari**

**Reja:**

1. Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati.
2. Inklyuziv ta'limda amalga oshiriladigan vazifalar
3. Inklyuziv ta'limning huququqiy-meyoriy asoslari.

Inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati.

Alovida yordamga muhtoj bolalar va o’smirlarga nisbatan g‘amxo‘rlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ta’lim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog‘lom jamiyatga tenglashtirish ishlari bugungi kunning o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha ta’lim muasasalari va maktab-internatlar mavjud bo‘lib, ushbu ta’lim muasasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo ko‘plab sabablarga ko‘ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda o‘qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus maktabgacha ta’lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo‘lsada, biroq aynan alovida ehtiyojli bolalarning sog‘lom muhitda ta’lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ko‘plab qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning yopiq-segregatsion ta’lim tizimida o‘qitilishining ko‘plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olindi.

Zero, BMT tomonidan 1949 yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da “Ta’lim olish har bir insoning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alovida e’tirof etilgan.

Shuningdek, BMT 1975 yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabil qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta’kidlanishicha: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiat va jiddiylik darajasidan qat’iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya (3-modda).

BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvenitsiya” barcha bolalarning huqularini hamma joyda amalga oshirish

maqsadida ishlab chiqarilgan inson huquqlari borasidagi halaro shartnomalarini hisoblanadi.

“Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” barcha bolalarning huqularini himoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida “Bolalar ularning ota-onalari, boquvchilarining irqlari, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat’iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak” – deb qat’iy belgilangan. Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo‘lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo‘lish kafolatlanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etish masalasi eng dolzarb masalalar qatorida qarala boshladи. Natijada, 1990 yilda Tailandda o‘ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiyada “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. “Ta’lim hamma uchun ” Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to‘laqonli va mukammal ta’lim olishini kafolatladı.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilingan: “Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas ish sifati va maktab ta’limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta’lim tarbiya olishni talab etadi;
- o‘qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;
- maktabda to‘laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etiladi;
- bolalar to‘g‘risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;
- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o‘quv rejaning asosi sifatida qaraladi;
- inklyuziv maktablarning moddiy ta’minoti yaxshilanadi”.

1994 yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniyaning Salamanka shahrida 2-yirik Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur Konferensiya “Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limining kelgusida ijrosini ta’minalash Ramkasi” deb atalib, shu yili “Salamanka bayonoti va Ish faoliyat Rejas” nom bilan uning ish mazuni nashr etildi. Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar o‘qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta’kidlanishicha:

“Har bir bola ta’lim olish va o‘ziga muvofiq darajada bilimga erishish huquqiga ega:

Ma’orif tizimi va ta’limiy dasturlar turli xil xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo‘naltirilsin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin;

Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositasi bo‘la oladi:

Ajratib qo‘yish illatiga qarshi kurash;

Do‘stona insonparvar jamoalarni yaratish, o‘z tarkibiga maxsus ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni olgan jamiyatni qurish;

Barcha bolalarning ta’lim olishiga erishish” (Salamanka bayonoti 2-band);

Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasining ishlab chiqilishi jahon miqiyosida “Ta’lim hamma uchun” mazmunidagi ta’lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitida o‘qitishning yo‘llari belgilab berildi. Ammo bu ta’lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq huquqiy jihatdan asoslash, qat’iy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun 2000 yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta’lim to‘g‘risida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan “Dakar harakat dasturi” qabul qilindi. Ular 10 yil oldin qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” Xalqaro Deklaratsiya (Djomtyen-Tailand-1990 yil) ni qayta tasdiqlab, radifikatsiya qildilar. Dakar harakat dasturi “2000 yilga qadar jahon miqiyosida ta’lim hamma uchun amaliy

faoliyatining darajasini baholash” maqsadiga asoslanildi. Bu baholashda har bir davlat o‘zining ta’limni barcha bolalar uchun taminlanganlik darajasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi.

Dakar harakat Ramkasiga kirgan barcha davlatlar 2002 yilga qadar “Ta’lim hamma uchun” rejasini mukammal tuzib, 2015 yilga qadar bu ta’lim tizimini amatiyotga to‘liq joriy etishlari lozim deb topildi.

Ushbu harakat Ramkasi tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi “Har bir insonga va har bir jamiyatga” shiori ostida barcha insonlar va bolalar ta’limini to‘laqonli ta’minalash majburiyatini oladilar. Bu harakat dasturida “Ta’lim xavsiz, sifatli, bolaning sog‘lig‘ini himoya qilib, mustahkamlaydigan, hamma uchun birdek, inklyuziv tarzda va barcha zaruriy resurslar bilan ta’minalangan bo‘lishi lozim. O‘qituvchilar saviyasi va o‘quv rejalar “Ta’lim hamma uchun” maqsadlariga javob berishi kerak”-deb belgilangan («Dakarskiye ramki deystiy»-Fransiya 2000 yil, 20-21 betlar).

Shunday qilib, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to‘laqonli va tenghuquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta’limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Bu ta’lim tizimlari barcha bolalarning tili, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, jismoniy va ruhiy holatlaridan qat’iy nazar talimga jalb etishni ko‘zlavchi “inklyuziv” ta’lim nomi bilan ataldi.

Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion-uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) bu davlat siyosati bo‘lib, normal rivojlanishdagi va maxsus ehtiyojli bolalar o‘rtasidagi to‘siquidarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar va o‘smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar oilaning faol ishtirokida umumta’lim tizimiga to‘liq qo‘shishni va ijtimoiy hayotga moslashtirishni ifodalovchi ta’lim tizmidir.

Yuqorida keltirgan meyoriy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni ham umumta’lim muassasalarida tenghuquqlilik asosida o‘qitish va tarbiyalash masalasi huquqiy jihatdan kafolatlandi.

Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta’limining samarali tashkil etilishi natijasida

imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo‘lgan oilalarning moddiy va ma’naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;

imknoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o‘rtasida

tenghuquqlilik ta’milanadi, do’stona munosabatlar shakllanadi;

maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;

jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;

barcha uchun ta’lim sifati yanada yaxshilanadi;

imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;

imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta’milanadi, ya’ni jamiyatda boshqalar ko‘magiga qaramlar soni kamayadi.

Yuqorida samaradorlikka erishish uchun inklyuziv ta’limda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

barcha ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim olishlari uchun zarur moddiy-texnik, psixologo-pedagogik va korreksion yo‘naltiruvchi sharoitlarni yaratish;

o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ta’minalash;

jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do’stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish;

jamiatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog’lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

jamiat rivojining faol ishtirokchilarini ko‘paytirish, ishsizlar sonini yanada kamaytirish;

barcha uchun ta’lim sifatini oshirish asosida davlat iqtisodini o‘stirish va halq ma’naviyatini yuksaltirish.

Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limi asosan umumiy, maxsus ehtiyojli bolalarning yashash joyiga yaqin bo‘lgan muassasalarda tashkil etiladi. Bunday muassasalar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatları, o‘qitish usullari va ta’lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqlashtirilgan ta’lim-tarbiya tizimini tashkil etadi.

**1.Inklyuziv talim jahon miqqosidagi hujjat (YuNESKO)** Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o‘zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojni hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini Hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g’oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog’lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida yoshlarning sifatli ta’lim olishi, kasbhunar egallashini ta’minalashga hamda ularni mehnat bozoriga

tezmoslashuvchan, raqobatbardosh mutaxassis, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol shaxs sifatida tayyorlashga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’lim modellari tatbiq etilgan. YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan“Jamoatchilik Asosidagi Reabilitatsiya (JAR) bo‘yicha yo‘riqnomasi”da imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’lim olishi, turli sohalarda o‘qish imkoniyatlariga ega bo‘lishi, o‘z salohiyatlaridan to‘la foydalanib, g‘urur va qadr-qimmatini oshirishi, jamiyatning faol a’zosiga aylanishiga erishish hamda ularda ijtimoiy faollik motivatsiyasini intensiv rivojlantirish strategiyalari belgilab qo‘yilgan . Jahonda ta’lim barcha uchun tamoyiliga asoslangan inklyuziv (sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda ta’lim olishi) ta’limni keng joriy etish, uzlusiz ta’limning barqarorligini ta’minlovchi umumpedagogik qarashlar, ilg‘or tendensiyalar, innovatsion hamda variativ texnologiyalarni aniqlash, tanlash va amaliyotga samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari AQSh, Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston hamda boshqa davlatlarda olib borilmoqda. Nogironlikni erta aniqlash texnologiyalari, ta’lim muassasalarida korreksion-kompensatsion yondashuvlar, kommunikativ tizim tamoyillarini samarali qo‘llash orqali o‘quv fanlarini o‘qitish, o‘quvchilarni oilaga, mehnatga tayyorlash mazmuni va mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilgan. Mamlakatimizda jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishning huquqiy-me’yoriy asoslari ishlab chiqildi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etiluvchi kar, zaif eshituvchi bolalar uchun oilada yakka tartibdagi, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv ta’lim mazmuni zamon talablari hamda xalqaro miqyosdagi yondashuvlar asosida takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’limning barcha bo‘g‘ini va turlari qatorida ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim tizimini tubdan yaxshilash, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi . Natijada mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talablari asosida

o‘qitish, tarbiyalash bo‘yicha ta’lim xizmatlarining optimallashuvi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarining yanada modernizatsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratildi.

## **2.Ozb Respublikasida inklyuziv talimni qollab quvvatlashning huquqiy asoslari**

O’zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog’liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966 yilda boshlangan. Hozirgi kunda O’zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko’rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko’zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo’lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo’ljallangan 86 ta maxsus ta’lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog’chalari mavjud. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi — yordamga muhtoj bo’lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim. YuNESKO markazi tomonidan «O’zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha bog’cha va o’rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo’llab-quvvatlandi va yaqin kunlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va ularning qobiliyatlorini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Ta’lim tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Oila va maqallada ota-onalar uchun profilaktika hamda reabilitasiya ishlari bo‘yicha o’quv mashg’ulotlari tashkil etiladi. Ota-onalar nogiron bolalarini tarbiyalash va ularning aqliy rivojlanishlarini rag’batlantirish bo‘yicha pedagogik usullar, shuningdeq ularning mustaqil bo’lishlari uchun tengdosh sog’lom bolalar bilan muloqot qilishlari bo‘yicha o’qitiladilar. Loyiha to’qqiz bosqichdan iborat bo’lib, har bir bosqich quyidagi faoliyatlarni qamrab oladi: 1 -bosqich: Respublika ta’lim markazi qoshidagi Maxsus talim bo‘yicha manba markazida ko’chma ta’lim guruhi tashkil etiladi. Ko’chma ta’lim guruhiga texnik

yordam ko'rsotish.

2-bosqich: «Barqaror toraqqiyot uchun inklyuziv ta'lism» mavzusida milliy anjuman tashkil etish.

3-bosqich: Xalq ta'limi vazirligining viloyat boshqormalori bilan hamkorlikda nuqson bilan rivojlanoyotgan bolalarni aniqlash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyani toshkil etish. Qo'shma guruh va sinflarda o'qitish moqsadida nuqson dorajosi me'yordon og'ishgon (3-7 yoshdagi) bolalarni aniqlash

4-bosqich: Uslubiy tavsiyanomalar, qo'llanmalar va dasturlarni nashr qilish.

5-bosqich: Pedagog-tarbiyachilar, o'qituvchilar, psixologlarning qo'shma guruhlari va sinflarda bolalardagi nuqsonlarni tuzatish va rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.

6-bosqich: Mavjud bolalar ta'limi muassasalarida, 2 ta bog'cha va 2 ta o'rta maktabda maxsus tajribaviy guruh tashkil etish, Texnik yordam ko'rsatish.

7-bosqich: Maktabgacha inklyuziv ta'lim Ixtisoslashgan ishlab chiqilgan tajribalarni targ'ib qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy, amaliy-mintaqaviy anjumanni tashkil etish.

8-bosqich: Monitoring va baholash.

9-bosqich: Moliyaviy hisobot.

### **3.Ozbekistonda Inklyuziv talimni qollab quvvatlashning amaliy tajribalar**

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi va inklyuziya sohasi ekspertlari "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning xalq muhokamasiga qo'yilmaganini ta'kidlab o'tishdi.Yangi tahrirdagi qonun loyihasi Oliy Majlis qonunchilik palatasining saytida 2019 yil 29 avgustda chop etildi. Biroq nogironligi bor insonlarning jamiyat tashkilotlari, nogiron bolalar va ularning ota-onalari/vasiylari qonun muhokamasi uchun jalb qilinmadilar. Normativ-huquqiy hujjalarni muhokamasi sayti regulation.gov.uz portaliga qonun loyihasi joylashtirilmadi.Inklyuziv ta'lim olish huquqini kafolatlash, nogironligi bo'lgan hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan har bir inson ushbu huquqidani to'la foydalanishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish uchun biz qonunga quyidagilarni kiritishni so'raymiz:3-“Asosiy tushunchalar” moddasiga inklyuziv ta'lim tushunchasini kiritish lozim;9-

“Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim” moddasida nogironligi bo‘lgan va rivojlanishi nuqsonli bolalar uchun eng ustuvor ta’lim umumta’lim o‘quv muassasalarida tahsil olish ekanligi o‘z aksini topishi lozim. Bolalarga davlat ixtisoslashtirilgan, tibbiy-profilaktik muassasalarda yoki uyda ta’lim berish maxsus holatlardagina amalga oshirilishi lozim.10- “Kasbiy ta’lim” va 11-“Oliy ta’lim” moddalariga nogironligi bor insonlarga mazkur ta’lim bosqichlarida tahsil olish imkonini berishni aks ettirish.20-moddadan inklyuziv ta’lim olish huquqini chegaralovchi shartni chiqarish kerak. Ta’lim shaklini tanlash huquqi nogironligi bor bolalar, ularning ota-onalari/vasiylarida qolishi kerak. Inklyuziv ta’lim faqat bolalar bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib qolmay, balki yoshidan qat’iy nazar har bir inson hayoti davomida uzluksiz ta’lim olish huquqiga va imkoniyatiga egaligini bildirishi lozim. Mazkur tahlil Oliy Majlis Senatinining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash qo‘mitasining so‘rovnomasini tufayli o‘tkazildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun loyihasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ro‘yxati to‘liq qo‘mitaga yuboriladi. Nogironlarning 26 ta jamoat birlashmasidan iborat O‘zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi nogironligi bor insonlarning fikrlari tinglanishiga va qonun inklyuziv ta’limning xalqaro tamoyillariga va BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi tamoyillariga to‘liq mos kelishiga umid bog‘laydi.

**4.Imkoniyati cheklangan bolalar Inklyuziv talimni ilmiy nazariy asoslari**

Inklyuziv ta’limni joriy etish sifatida qaralmoqda eng yuqori shakli shaxsning yashash joyida uning kognitiv qobiliyatlari va sog‘lig‘iga mos keladigan muhitga muvofiq sifatli ta’lim olish huquqini amalga oshirish yo‘nalishida ta’lim tizimini rivojlantirish. Inklyuziv ta’lim va tarbiya uzoq muddatli strategiya bo‘lib, mahalliy ish sohasi sifatida emas, balki umumiyligi ta’lim tizimining barcha sohalarda faoliyatini tashkil etishga tizimli yondashuv sifatida qaraladi. Inklyuziv ta’lim shakli ta’lim jarayonining barcha sub’ektlariga taalluqlidir: nogiron bolalar va ularning ota-onalari, normal rivojlanayotgan o‘quvchilar va ularning oilalari, o‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi boshqa mutaxassislar, ma’muriyat, tuzilmalar. qo‘srimcha ta’lim. Shu sababli, umumiy ta’lim muassasasining faoliyati nafaqat nogiron bolani o‘qitish va tarbiyalash uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratishga,

balki o'qituvchilar (tuzatish va umumiy pedagogika sohasidagi mutaxassislar) o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. va nogiron talabalar va ularning sog'lom tengdoshlari o'rtasida (Kovalev E.V., Staroverova M.S., 2010). Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim tizimiga inklyuziyaning kiritilishi qiyamatning pasayishiga olib kelmasligi kerak. maxsus ta'lim. Inklyuziv ta'lim ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'lib, nogiron bolaga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish variantidir. Barcha maxsus bolalar o'zlarining normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan ijtimoiy va ta'limdagi o'zaro munosabatlar tajribasini boyitishlari kerak, ammo har bir bola o'z rivojlanishi uchun qulay va foydali bo'lgan ta'lim modelini tanlashi kerak. Ta'lim inklyuziyasi, ehtimol, o'z chegaralariga ega, agar bolaning bиргаликда o'qishi noto'g'ri bo'lsa, ixtisoslashtirilgan muassasada o'qish imkoniyatini ta'minlash, ijtimoiy ko'nikmalarни shakllantirishga g'amxo'rlik qilish kerak, shu jumladan bиргаликдаги dam olish **dasturlari**.

#### **5. Inklyuziv ta'lim va uning mohiyati.**

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim olishidir. Bunday ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Bunday ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Integratsiya tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "integrative" – qo'shiluvchi, birlashuvchi, "integratsion" – qo'shilish, birlashish degan ma'nolarni anglatadi. Inklyuziv ta'lim esa integratsiyani o'z ichiga oladi. Demak, barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvida nogiron bo'lgan hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat ko'zda tutiladi. Har bir imkoniyati cheklangan bolani umumta'lim muassasalariga da'vat qilinganda bolada qo'rquv yuzaga keladi. Sababi shunda-ki, ular alohidalikka o'rganib qolishgan. Ya'ni o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishdan cho`chiydi.

#### **6. Integratsion talim va ijtimoiy reabilitatsiya**

Ijtimoiy reabilitatsiya - insonning ijtimoiy mu xit da faoliyat yuritish kobiliyatini

tiklashga karatilgan jarayon - texnologiya sifatida tibbiy, maishiy, kasbiy, shaxsiy darajadagi reabilitatsiyaga karatilgan chora- tadbirlar majmuasini ilgari suradi. Bolaning jamiyatda ijtimoiy moslashuviga, uning ijtimoiy maqomini qayta tiklashga, yo`qotilgan munosabatlarni qayta tiklashga karatilgan faoliyat turi bo`lib, insonning ijtimoiy muxitda faoliyat yuritish kobiliyatini tiklashga karatilgan chora-tadbirlar majmuasini o`z ichiga oladi.

Интеграция атамаси лотинча интеграцион сўзидан олинган бўлиб қўшилиш, бирлашиш маъноларини билдиради. Маълумотларни интеграциялаш ҳар хил манбаларда мавжуд бўлган материаларни маълум мақсад асосида бирлаштириб тақдим этишни назарда тутади. интеграция” тушунчаси икки маънони англатади: мақсад ва таълим воситаси сифатида. Интеграция таълимнинг мақсади сифатида ўқувчига дунё қисмларининг тизим сифатида ўзаро боғлиқлигини акс эттирувчи билимларни бериши керак, болани ўрганишнинг дастлабки босқичларидан бошлаб барча элементлар ўзаро боғлиқ бўлган бутун дунёни тасвиrlашга ўргатиш учун мўлжалланган. Интеграция ўқув қуроли сифатида ўқувчининг билимдонлигини ривожлантиришга, таълимдаги мавжуд тор ихтисосликни янгилашга қаратилган. Адабиётларни таҳлил қилиб, интеграциянинг қуидаги таъриfinи келтириб ўтишимиз мумкин: интеграция - бу фанлар, ўқув фанлари, ўқув фанлари бўлимлари ва мавзуларининг чукур, изчил, кўп қиррали очиб берилган етакчи ғоя ва етакчи позицияларга асосланган табий ўзаро боғлиқлиги ўрганилаётган жараёнлар ва ҳодисалар. 7va17chi savolla. Inkluyuziv talimga bolgan ehtiyojlar keltirib chiqaruvchi sababla Jismoniyuqsonlaribo 'lganbolalaruchuninklyuziyakontekstidaumumiyamkt ablardata'limhechqandayto 'siqbo 'laolmaydi, chunkiularning intellektualsalohiyati he chqandaytarzdachekeklanmagan. Bunday bolalarningoldigamktabbinosining yaroqsizligi, maktabrahbariyati, o 'qituvchilarivanogironbolalarota-onalarining ulargan isbatansalbiystereoti plarivakamsituvchimunosabatiyagonato 'siqdir. Jismoniyuqsonlaribo 'lganko 'plabbolalar oddiy maktablarga borishimkoniy o 'qli gisababliuydasifatsizta 'limolishgamajbur. Buerdamuammobolaningjismoniyholatid

aemas,balkiumumiy maktablarda qulaymuhit va qulayturar joyningyo ‘qligidadir.Iva II guruhnogironligibo ‘lgantalabalar davlat monida naja ratilgan 2 foizlikkota asosida oli yo ‘quvyurtlarigao ‘qishgakirgach, birqatorto ‘siqlargaduchkeldilar.Universitetbinolar ida qulaymuhiyo ‘qligi sababli ayrim nogirontalabalar uchun alohida akademik guru hlar tashkiletildi.Ushbumu ammoningoldini olishma qsa dida qaror loyihasidan ogirontalaba laruchuno ‘quvbinolarivatalabalar turar joylaridasharoityaratishko ‘zdatutilgan.

8.Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron vanogiron bo‘l magan bolalar o‘rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy mакtab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

9.Funksional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo‘l magan bolalar o‘rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

10.Ijtimoiy integratsiya — bu yangi kelganlar yoki ozchiliklarning mavjud jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga qo‘shilish jarayoni.[1] Ijtimoiy integratsiya, iqtisodiy integratsiya va identifikatsiya integratsiyasi bilan birga, ularni qabul qilayotgan jamiyatda yangi kelganlarning tajribasining uchta asosiy o‘lchovidir.[1] Ijtimoiy integratsiyaning yuqori darjasи guru hlar o‘rtasidagi yaqinroq ijtimoiy masofaga va izchil qadriyatlar va amaliyotlarga yordam beradi. Til, tabaqa, e’tiqod va hokazolardan qat’i nazar, o‘zligini yo‘qotmasdan turli etnik guru hlar ni birlashtirish jarayoni. Bu jamiyat hayotining barcha sohalariga kirish imkonini beradi va segregatsiyani yo‘q qiladi.Kengroq nuqtai nazardan, ijtimoiy integratsiya dinamik va tizimli jarayon bo‘lib, unda barcha a’zolar tinch ijtimoiy munosabatlarga erishish va saqlash uchun muloqotda ishtirok etadilar. Ijtimoiy integratsiya majburiy assimilyatsiya degani emas. Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy qarama -qarshilik, ijtimoiy parchalanish, ijtimoiy chetlanish va qutblanish sharoitlarini tuzatish, shuningdek, tinch ijtimoiy munosabatlarga ijtimoiy integratsiya sharoitlarini kengaytirish va mustahkamlash orqali xavfsiz, barqaror va adolatli jamiyat sari harakat qilish zarurligiga qaratilgan.[2]

11.Imkoniyati cheklangan bolalar talim berishning etiologiyasi omillarining roli Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o‘qituvchi va tarbiyachilar faoliyati

inklyuziv ta’lim-tarbiyada o’ziga xos o’rin tutadi. Bunday ta’lim-tarbiya tufayli maxsus ehtiyojli bolalar: jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar; ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o’quv materiallarini o’zlashtiradilar; tengqurlari bilan turli o’yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar. Jismonan salomatlik alohida imkoniyati cheklangan bolalarning hayotida, ayniqsa, yoshligida muhim ahamiyatga ega. Bolaning saqlanib qolgan salomatligini muhofaza qilish jarayonida uning sog‘lom umri davomiyligini ta’minalash uchun hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi bosqichmabosqich ijobiy hal etib borilishi kerak. Maxsus muassasalarning har bir tarbiyachisida alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning salomatliklarini mustahkamlab borish masalasiga ilmiy-metodik va amaliy yondashish, ko‘nikma malakalarini oshirib borish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun pedagogik jarayonni boshqarish va nazorat qilish tizimi, bolalarning jismoniy kamolotga erishuvini ta’minalashning samarali metod, usul va vositalarini ishlab chiqish lozim. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan imkoniyatilari cheklangan bolalarning imkoniyatlarini oshirish, integratsiya va ishtirok etish prinsipini kiritish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar yaxshi natijalarga olib kelishi bilan birga, lo‘z navbatida, uni rivojlantirish va muammolarini vaqtida bartaraf etishni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, bu sohada yechimini kutayotgan muammolar yetarli. Inklyuziv ta’limga jalb etilgan bolalar bilan ishlashda induviduallik tamoyillari asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur va maqsadga muvofiqdir. Har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatini hisobga olgan holda, uning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish orqali tengdoshlari qatoridan o‘rin egallashiga erishishimiz kerak. Aks holda, natijalar istalgan samara bermasligi yoki bolaning salomatligini yanada og‘irlashtirib qo‘yishi mumkin. Bizningcha, eng avval inklyuziv ta’limga jalb etilishi mumkin bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalardagi nuqsonlarning darajasini, rivojlanish bosqichlarini tibbiy, psixologikpedagogik, ilmiy me’zonlar asosida aniq belgilab olishimiz zarur. Natijalarga asoslanib inklyuziv ta’limga bo‘lgan ko‘rsatmalarning standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

- Vigotskiy L.S. Voprosi detskoy psixologii. – M.: SPB. 1999.
- Beltyukov V.I. Vzaimodeystviye analizatorov v protesse vospriyatiya i usvoyeniya ustnoy rechi (v norme i potogii) – M.: Pedagogika. 1997.
- Bogdanova T.G. Surdopsixologiya. –M., 2002.
- L.Mo‘minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar ,2013.
- P.Po‘latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.